

## ULUGBEK HAMDAM, ABDUQAYUM YO'LDOSHEV VA AHMAD A'ZAM HIKOYALARIDAGI SYUJETNING O'ZARO BIR- BIRIGA BOG'LIQLIGI

Sidiqova Shahnoza Kamoliddinovna

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti

2-kurs tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8388490>

### ANNOTATSIYA

Insoniyat tamaddunining ibtidosidayoq vujudga kelgan adabiyot zamonlar o'tishi bilan o'z mohiyatini yo'qotmagan, bil'aks, tobora qadri ortayotgan, bani basharning mislsiz ma'naviy xazinasini yanada -boyitayotgan buyuk mo'jiza bo'lib qolmoqda. Va bu jarayon abadul-abad davom etajak.

**Key words:** postmodernistik, hikoya, janr, sifat, syujet, uslub, obraz, struktura

Mazkur yilda e'lon qilingan hikoyalarning mavzu va mundarijasi, umuminsoniy qamrov ko'lami, badiiyligi – strukturasi, obrazlari va uslubi keyingi ellik yillarda yozilgan hikoyalarnikidan sezilarli darajada farq qiladi. Ularda xalq hikoyachiligi tajribalarini ham, mumtoz adabiyot an'alarini ham, jahon, jumladan, turk, yapon, rus, Lotin Amerikasi, ingliz, frantsuz, Amerika prozasi unsurlarini ham kuzatish mumkin. Muhimi, bugungi hikoyalarimizda mana shunday ulkan tajriba omillarini adabiyotning tuganmas manbai, Yaratganning san'ati – hayot voqeligi bilan sintezda ifodalashga urinishlar bor.

Har doimgidek 2012 yil hikoyalarining ham asosiy qismini voqeyiy hikoyalar tashkil etadi. Ayni dalil o'zbek nasrida hamon ushbu an'ana yetakchi maqomda turganidan dalolat beradi. Ammo shuni maxsus ta'kidlash joizki, bugungi ijtimoiy munosabatlar, xalqimiz turmush tarzidagi jiddiy muammolar, globalizatsiya jarayonida paydo bo'layotgan yangi tip odam obrazi, avvalgi davrlar uchun xos bo'lmagan tamomila yangi syujetlar, detallar, yangilanayotgan til va uslub elementlari ham aynan shu yo'ldagi hikoyalarda ko'proq ko'zga tashlanadi.

A.Yo'ldoshevning "Puankare" asari chop etilar-etilmas, uch to'rt maqolada tilga olindi. Asarning ilk talqinlaridayoq fikrlar rang-barangligi kuzatildi. Mana shuning o'zi ham hikoyaning noan'anaviy yo'lda yozilganiga dalil. "Puankare"ning goh neorealistik, goh neomodernistik, goh postmodernistik asar tarzida baholanayotgani ham aynan shu noan'anaviylikda bo'lsa, ehtimol. "Puankare" zamonaviyligi, o'ziga xos hikoyalash uslubi, badiiy muammoning dolzarbligi va, eng muhimi, asar markazidagi jumboqning antiqaligi, aniqligi, tarixiy-ilmiy asosga ega ekanligi bilan munosib o'rin egallaydi. Ammo shuncha fazilatlariga ega ekanligiga qaramasdan, bu asarning hech qanday postmodernizmga aloqasi yo'q. Ehtimol, asarning yangiligi, o'ziga xosligi ham shundadir.

An'anaviy syujet va uslubdagi hikoyalar:

Abduqayum Yo'ldoshevning "Biz izlagan tilsim", Ahmad A'zam hikoyalarini o'qib turib, ular hayot tarzimizga o'xshab ketadigan voqealar ketma-ketligi borligini anglashimiz mumkin. Inson ikir-chikirlarni, har bir gapni ko'ngilga yaqin olishi, ayniqsamashxurlar ketidan yugurishi. Bizda bir odat bor, ba'zan o'zbekchilik deb qo'yaveramiz. Xuddi shunday desak qutuladiganday, yoki silliq cjiqib ketadiganday.

Ahmad A'zamning "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasida meni birinchi o'ziga qaratgan narsa bu insonlarning fikri, jamiyat hayoti, ularning o'zaro sizning hayotingizga bo'lgan ta'siri. Hikoya bosh qahramoni, soyasi yo'qolgan kishi, bu birinchi sabab qilib, o'ziga nimani ko'rsatdi bilasizmi, u ko'p o'qiganligi, hissiyotlarga berilishi natijasida o'z hayoliy qo'rquvlarini yoniga

kelganligi. O'zini ularning oldida ojizday his qilganligi, yana bir narsa har bir inson bor ekan, o'zi o'qib yoki ko'rib turgan hayotiy vaziyati ichiga kirib ko'radi. Bu vaziyat uni qanchalik darajada o'ziga tortgani bu aslida hikoya egasiga ma'lum. Yana bir narsa Ahmad A'zam bu qarashlari bilan yana bir narsani o'quvchiga yetkazib bermoqchi bo'lgan. Bu ham bo'lsa uni yaqinlari, atrofidaqilar va jamiyat qanday qabul qiladi. Men hech qo'rqmay bir narsani ayta olaman. Insoniyatda o'zig abo'lgan ishonchning yetishmasligi, bu insonlar tez sinishiga, ularning ma'lum vaziyatlardan chiqolmasligiga sabab bo'ladi. Ayni shu etaplar natijasida esa inson o'z og'irligi, qahr-g'azab va tushkin kayfiyatini kimnidirustidan kulish yoki kimnidir chetlab yerga urush orqali erishishadi.

Buni esa ular "G'alaba" deb o'ylashadi. Aslida unday emas. Hammasi oddiy. Bu hayotda yuzaki yashashlik. Shu hikoyalardagi bir jumla juda ham hayron qoldirdi. U shunday deyilgandi. Boshliq javobiga qaratilib, balki biz aynan bu insonda faqat yaxshilik o'ti yonayotgandir. Balki ular bu qora soyadan qutulgandir deya soddalik bilan aytilgan so'zlar aslida inson ichidagi g'alayonni ko'tarishga uni shinamgina xonasidan chiqishiga sabab bo'ladi. " Bu ham bir baxt deya qo'shib qo'yish esa uning Ichida ham shu ko'ngilsizlikni chiqarib yuborishni, buni shunchaki oddiy qabul qilish mumkinligini anglatyapti. Ahmad A'zam hikoyalaridagi bu oddiylik uning asarlarini yanayam ko'rkam va o'qimishli qilgani bejiz emas.

"Oyning gardishi" hikoyasida ham ota-onaning mehri ularga bo'lgan bizning mehr-muhabbatimiz va ilmi insonlar jamiyati haqida gap ketadi. Aslini olganda bu narsalar juda oddiy, chunki hozirgi kunda biz bu narsalarni yengib ko'rib, ilmlilar jamiyatda yashayapmiz. Aslida esa unday emas. Bu bilimni olish uchun qanday davrlar vaqtlar, kunlar va labatta, qarshiliklar bo'lgani, bu jamiyatga ham kirib kelish oson bo'lmagani anglash bir muncha vaqt olmasa kerak. Biz doin o'samiz. Lekin sabab bu bizda konfliktlarning borligi- ularga qarashlarimiz mavjudligi uchun. Aslida bu o'sish ba'zan bizni sindirib, o'ylanishga yaxshi amallarimizni ko'paytirish uchun ko'zimizni ochishga ham sabab bo'ladi.

"Masterjamiyat" hikoyasi misolida ham ko'rsak bo'ladi. Bu barchasi oddiy ko'ringani bilan ular o'zlarini hissiyotlari bilan u ishga yondashadi. Hozirgi jamiyatda ham bunday aql bilan, barchasini hisobga olib gapirgan ayollarni toppish mushkul. Bu oxirgi aytib o'tgan hikoyamda ham ayollar tuzgan jamiyat rivoji uchun ba'zan manfaatdor bo'lgan kishilari bu televideniya yoki Shahar mashxur kishilaridir. Ularsiz har bir jamiyatda ish bitmaganidek, yomon go'yalar ham shunday insonlardan tarqaladi degan ma'noda aytmoqchiman. Meni o'ziga tortgan va juda e'tiborimni qaratishga moyillik qilgan kitob bu "To'lin oy qissasi" hikoyalari to'plami bo'ldi. Ulug'bek Hamdam hikoyalarida BIRINCHI NAVBATDA Allohga bo'lgan ishonch, qahramonlarning o'y- kechinmalari, mehr-oqibatlari, yoshlarning bir-biriga muhabbati, voqealar rivoji, ishonarli va hayotiy tasvirlangan. Haqiqiy realistic ruhdagi hikoyalar desam adashmagan bo'laman. Birinchi o'qiganimda bir payola suv hikoyasi meni shunaqa o'ziga tortidiki, oh naqadar haqiqat ayni damda inson o'z xohish- istaklari, uchun nimalarni bosib o'tmaydi. Bu yo'llarda hech bir ishdan qaytmaydi. Faqat aniq xohish- istaklari uchun nimalarni bosib o'tmaydi. Bu yo'lda hech bir ishdan qaytmaydi. aslida esa maqsadga yetib borolmay, sarobga aylangan ko'z oldimizga keladi. " Vatan" hikoyasida esa o'z so'zida turuvchi, yovdan ya'ni o'z maqsadi yo'lida hech narsadan tap-tortmaydigan haqiqiy bahodirlar borligi. Bunday qahramonlar haqida o'qigan o'quvchida o'ziga nisbatan g'urur tuyg'usi uyg'onadi. Buni tushuntirish balki, mushkuldir. Ammo aminmanki, barchasi oddiy, sababi butun yovga qarshi chiqolgan mard- jasur farzand o'lishini bilsa kimgadir qaram bo'lib, o'z yurtini shunchaki

berib qo'ygisi kelmagan, yurt suyanchi bo'lgan yigit, o'zini ortida butun erkak-u ayolni ergashtira olgan qahramon. o'z tuprog'ini hech kimga hafa qildirmagan yurt tayanchi mana shunday pahlavonlar o'tgan, ularni shon-sharaf bilan eslash esa eng oliy baxtdir. May navosi o'g'ir ohangda eshitayotgan, sog'inchi hissi o'rtagan, lekin o'z yurtiga borsa ham qishloqlarini ko'rsayu ulardan faqat jaydarichasiga so'kinishlarni eshitgan. Alisher Navoiy hayotida ham juda og'ir kechinmalar o'tadi. Buni o'quvchini o'zi darxol anglasa kerak. Natijalaringiz zo'r bo'lsa-yu, qandaydir his sizni qiynasa, o'zingizdan ko'nglingiz to'lmasa, bu nima ekan deya o'z yurtingiz tomon qadam bossangiz. Lekin hech bir narsani, og'irligingizni chiqarib tashlamangiz, keyin o'zingizga savol bersangiz. Nega bunday bo'lyapti, nega men erishmayapman. Nega menda quvnoqlik yo'q. ota yurtimga kelsam-u xotirjamlik topmasam bu nimadan bo'lishi mumkin. Men nima qilsam buni topaman. Jigarimni ko'rsam yorqinlik sezmasam qayerdan shuncha yot begonalik. Nima qilsam o'zimga kelolaman. Bu ham o'tkinchi. Buning ham ortida inson ichki xis-tuyg'ulari yotadi. Men baxtlimanmi deya o'ziga savol beradi. Shukur hissi uni bir muncha o'ziga keltiradi. Bu ham Allohga ishonmoqlikdir. "Safar" hikoyasidagi holat esa hech kimga siz bo'lmasa kerak. E'tibor bersangiz oddiy bir fikr insonlarga qay darajada yetib boradi. Bir darsdan inson o'ziga qanday g'oya, qanday fikr oladi. Bu hammasi uning ichki g'alayonlari tufayli, bularni anglash his qilish qiyin ekan. Buning zaminida sizning hozirgi vaqtdagi o'y-kechinmalaringiz yotadi. Qabilaning o'rtasidagi sevgi va o'zaro g'alayonlari. Insonlarda o'zaro hurmat, e'tibor,, qabul qilib bo'lmas ekan bu g'alayonlar ularni ham sindiradi. Bu Allohni yaratgan bandasini yomon ko'rishga olib keladi. Bu esa Allohni yaratgan bandasini yomon ko'rishga olib keladi. Bu esa Allohga qarshi chiqqan bilan barobardir. Menga eng yoqgani bu "yaxshi odamlar" hikoyasi bo'ldi. Shunchalik Ulug'bek Hamdam o'quvchi tushunishi, his qilishi xulosa chiqarishi uchun osonlik bilan insonlarni o'zaro oyna qilib qo'yganki, bir o'qigan o'quvchi qayta qidirib ma'no izlamaydi. Osonlik bilan xulosa qilib, hayotida qo'llay boshlaydi. Ba'zan jigar do'stning ham og'ir ahvoldingda yordam berolmay qolishi, shuni ko'rib tursa ham yordam qo'lini cho'zmay, o'zini chetga olib turishi. Xuddi oxiri nima bo'larkin deya serial ko'rishayotganga o'xshaydi. Insonlarda iymon susaygan. Buni qo'rqmay ayta olaman. Har xil bo'xtan gaplarga suyanib, har xil g'iybatlar qilish ham bu iymonimiz susayib "Allohga bo'lgan ishonchimiz yoqligidan. Aslida bunga ham ba'zan o'zimiz sababchi bo'lamiz. Nega deysizmi ongli ravishda barchamizni yaratuvchi Allohni sedan chiqarganimiz uchun. Balki meni fikrim ham qoralanar. Lekin o'ylaganlarimni yozgim keldi. Hikoya qahramoni Ibrohim ham qizini qutqarish talvasasida qo'lidan kelganini qildi. Bu ham yutug' bu ham bir mushkulot. Oxiri baribir yaxshi insonlar kelib unga yordam qo'lini cho'zishni bu ham bir sinoat. Bir ko'prik. U ko'prikdan o'tayotib sinaldi. Sinov jon achchig'iday og'ir keldi. Lekin oxiri tushundi. Ulug'bek Hamdam barchasi oddiy uslubda kutobxonga tushuntirgani, oddiqlik bilan hikoyalarga men bergan o'quvchini lol qoldiradi.

Abduqayum Yo'ldoshevning "Puankare" hikoyalar to'plamidagi "Biz bo'lmagan joylarda" nomli hikoyasi ham o'quvchini bir muncha saramjon fikrlashga olib keladi. Ilgarigiday albatta, qishloq raisi doimo obro'li bo'lgan. Uni hamma narsasi xavas qilguli darajada bo'lishi kerak. Urushdan g'alaba bilan kelgan o'g'il o'z orzulari bilan emas, otasining ozrulari bilan yashadi. Barcha qarshiliklardan o'ta olmadi. Otasi obro'si, yuzini yerga qaratmadi. O'z o'ylagan, izlagan hayotidan voz kechdi. Uylandi, el qatori yashay boshladi. Insonni ichini yemirgan g'azab esa jigari kasal bo'lishiga olib keldi. Oxir-oqibat u tuzalmas kasal bilN JIGAR ISHISHI natijasida kasallanib, olamdan o'tdi. Eng qizig'I odamlar buni ham gapirishdi. Siz o'zgarimas ekansiz.

Jamiyat ham o'zgarmaydi. Odamlar o'sha-o'sha gapirguncha qoladi. Otada armon qoldi. Faqat endi nima qila oladi. Odamlar nima derkin deya o'z farzandini o'z qo'llarim bilan go'rga olib bordim. So'nggi pushaymon esa....

“quduq” hikoyasida esa bir Muallim shunchalik qilgan ishi, farzandi o'limidan qandayin bo'lmasa ham qutilish o'rniga tinmay tutilardi. Buni baribir iloji bo'lmadi. Butun qishloq unda loy chaqladi. Birgina maqola qancha narsani, qancha insonni o'limiga sabab bo'ldi. Butun qishloqni yo'q bo'lib, sarson bo'lishiga olib keldi. Bu ham bir sinov undan chiroyli bir yechim bilan chiqib ketish esa eng birinchi kuchdir. Hozirgi hikoyani tahlil qilishdan oldin, bir narsa esimga tushdi. Bu paxta davrlari. Shu vaqtlarni eslab yaxshiyam yurtimiz tinch, zamonamiz rivojlangan deyman. O'z yurtimdan fahrlanaman. “Aybdor” hikoyasi kimnidir oldidan o'ta olmaslik natijasida qanday ishlar bo'lgani, qanday insonlar shunchaki o'lin ketishgani to'g'risida. Hamma o'z manfaati yo'lida, obro'si uchun foydalangan. Shunchaki insonlarni qiynash evaziga vijdotsizlik qilishgan. Oxiri esa bir inson ma'nosida, jamiyat Zarar ko'rgan. Ayni shunga mos ravishda keying hikoyamizda ham bir qizning hayoti bir maqtov tufayli butunlay teskari bo'lib ketadi. Bir qiz aqlini yo'qotar darajada og'ir ahvolga tushadi. Bu ham ayanchli, ham o'ylashli, fikr qilishli mavzu. O'quvchi ongiga hayotda qanday yashash sirlari o'rgatiladi. Eng qiziq hikoya bu “Boy” hikoyasi bo'ldi. Insoniyat qiziq, hech kimga tanilmay, hech kim uni inson sifatida ko'rmayotgan bir opaytda o'z imkoniyati va o'z iqtidori bilan qishloqning eng boy shaxsiga aylansa-yu, kibrga berilib, har bir qishloqni kirib chiqqan odami uni eshigini xatlab o'tmasligi kerak. Insoniyat hayotda o'ziga o'zi qiyinchilik tug'diradi. O'zi vaziyatni og'irlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, bunday insonlar har bir jamiyatda bo'lgan va bo'ladi ham. Insoniyat anglamas, o'z ustida ishlamas ekan, bu g'oyalar o'z -o'zidan yo'q bo'lib ketmaydi. Bu bir achchiq haqiqatdir.

## INNOVATIVE References:

1. Dilmurod Quronovning “Adabiyot nazariyasi asoslari” Toshkent “Navoiy universiteti”-2018-yil.
2. Qomus.info – internet sayti
3. Ziyouz.net – internet sayti
4. Komiljon Hamroyev “hikoya kompozitsiyasi” T.:“Nurafshon business”,2020.-140bet.